



Ixtiyor UMIROV,
O'zDJTU "Umumiy tilshunoslik" kafedrasida dotsenti, f.f.n.
E-mail: ixtiyorumirov0@gmail.com

DSc, professor I.Siddiqov taqrizi asosida

BILINGUISM AS AN INTEGRAL SOCIOLINGUISTIC FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY

Annotation

In the theory of preschool education, various approaches to the formation and management of the child's development process have been developed. All of them take into account factors such as psychophysiological characteristics of age, child's individuality, personality, activity, complexity, etc. However, it has not been scientifically proven that the sociolinguistic and lingu-psychological methods of teaching languages to children from an early age are important in language learning. This article is new in these aspects. In addition, the method of formation of bilingualism in children and the experimental application of formation of bilingualism in preschool educational organizations were also implemented in the article.

Key words: Sociolinguistics, linguistic psychology, bilingualism, polylingualism, diglossia, biculturalism, spontaneous translation.

БИЛИНГВИЗМ КАК ВАЖНЫЙ СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА

Аннотация

В теории дошкольного образования разработаны различные подходы к формированию и управлению процессом развития ребенка. Все они учитывают такие факторы, как психофизиологические особенности возраста, индивидуальность ребенка, личность, активность, сложность и др. Однако научно не доказано, что социолингвистические и лингвопсихологические методы обучения языкам детей с раннего возраста имеют важное значение в изучении языка. Данная статья является новым в этих аспектах.

Кроме того, в работе реализована методика формирования билингвизма у детей и экспериментальное применение формирования билингвизма в дошкольных образовательных организациях.

Ключевые слова: Социолингвистика, лингвистическая психология, билингвизм, полилингвизм, диглоссия, бикультурализм, спонтанный перевод.

BILINGVIZM – JAMIYAT RIVOJLANISHINING MUHIM SOTSIOLOGVISTIK OMILI SIFATIDA

Аннотация

Maktabgacha ta'lim nazariyasida bolaning rivojlanish jarayonini shakllantirish va boshqarishga turli yondashuvlar ishlab chiqilgan. Ularning barchasi yoshning psixofiziologik o'ziga xosligi, bolaning individualligi, shaxsiyati, faolligi, murakkabligi va boshqalar kabi omillarni hisobga oladi. Biroq, bolalarga kichik yoshidan tillarni o'rgatishning sotsialingvistik va lingvopsixologik metodlari masalasi ham til o'rganishda muhim ahamiyat kasb etishi ilmiy jihatdan o'z tasdig'ini topgan emas. Ushbu maqola aynan shu tomonlari bilan dolzarblik kasb etadi. Bundan tashqari, maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda bilingvallikni shakllantirish metodikasi hamda ikki tillilikni shakllantirishning psixolingvistik hamda sotsialingvistik aspektlari haqida ham gap boradi.

Kalit so'zlar: Sotsiolingvistika, lingvopsixologiya, zullisonaynlik, bilingvizm, polilingv, diglossia, bikulturalizm, spontan tarjima.

Kirish. Til nafaqat aloqa quroli, balki atrofdagi dunyoni aks ettirishning asosiy vositasidir, shu bois til va nutq muammolari jamiyatda hamisha dolzarb bo'lib kelgan va turli fanlar kesimida o'rganiladi. Tilning nazariy masalalari lingvistik fanida o'rganilsa, tillarni o'zlashtirish, o'rganish, qo'llash muammolari esa didaktika, pedagogika, metodika kabi fanlarning o'rganish ob'ektidir. Tilning qo'llanishi muammolari nutq faoliyati jarayoni, nutq sub'ektlarining yosh xususiyatlari bilan besvota bog'liqligidan kelib chiqib, til va nutq masalalari nafaqat tilshunoslik, balki psixologiya, sotsiologiya fanlarining ham o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Ushbu masalalarning keng tarmoqliligi va amaliy muhimligi keyingi yillarda tilshunoslik fanida psixolingvistik va sotsiolingvistik kabi zamonaviy yo'nalishlarni yuzaga keltirdi. Eng istiqbolli ilmiy yo'nalishlar ko'pincha turli bilim sohalari o'rtasidagi aloqa kesimida tug'iladi, shu bois tillarni o'rganish nazariyasiga psixolingvistik va yondashuv sotsiolingvistik yondashuv muammolari bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xususan, til ta'limining psixolingvistik masalalari N. I. Lepskaya, A. A. Leontev, A. K. Markova, K. F. Sedov, A. M. Shaxnarovich, U. Kvastof, K. Vagner asarlarida namoyon bo'ladi. Sotsialingvistik yondashuv esa V.K.Xarchenko, S.N.Tseitlin, I.P.Amzarakovalarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan bo'lib, jumladan, matnda til nutq sub'ekti tezaurisi, boshlang'ich sinf o'quvchisi lug'atidagi so'z semantikasi muammolari nutq jarayonida motivatsiya va so'zlarni aniqlash masalalari, baholash, sifat va hissiyotlarni ifodalash uchun qanday vositalardan foydalanishiga ko'ra bolalar toifasini aniqlash masalalari ishlarida o'rganilgan.

Til aloqalariga bag'ishlangan lingvistik adabiyotlarda bilingvizm hodisasining mohiyati va tabiatiga zid yoki hatto diametral qarama-qarshi yondashuvlar, atamani izohlash, bilingvizm turlarini tasniflash hamda uni tadqiq etish jihatlari oid qarashlar mavjud.

Lingvistik talqindagi bilingvizm yoki ikki tillilik ikki tildan galma-gal foydalanish amaliyoti demakdir. Yana ham aniqrog'i, bu hodisaning asosiy xususiyati bir xil so'zlashuvchilar muloqotida ikki tilning faoliyat ko'rsatishidir.

O'z milliy tilini ham, biror-bir chet tilini ham yaxshi egallashni bilingvizm deb hisoblab, ayrim tadqiqotchilar ikki tillilik taraqqiyoti milliy tillarning rivojlanishiga aslo to'siq bo'lmagligini, aksincha, bilingvizm hodisasi milliy tillarni yanada rivojlantirishning muhim manbalaridan biri bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydilar.

Demak, til kontaktlari va bilingvizm masalalari tilshunoslikning psixolingvistik, sotsiolingvistik sohalari ham aloqador bo'lib, ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarda chet tillarini kichik yoshdan boshlab o'rganish samarali kechishi ta'kidlanadi. O'zaro axborot almashish, ma'lumot, bilim olishda tilning nafaqat filolog, tilshunoslar, balki barcha kasb egalari orasida asosiy vosita bo'lib xizmat qilishi bugungi kunda bolalarga kichik yoshidan boshlab xorijiy tillarni o'rgatish va ularni ko'p tillilik muhitida turli tillarda erkin muloqot yurita olish faoliyatiga tayyorlab borishni davr ehtiyojiga aylantirdi.

O'zbek tilshunosligida M.S. Ismoilov, O. Umarxo'jaeva, N.S. Saydraximova, G. Iskandarova, M. Qurbonova, O. Saidahmedova, M. B. Shamsiyeva tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining fonetik hamda grammatik xususiyatlarini, bolalarda nutq hosil bo'lishi, bola nutqiy faoliyatida ijtimoiy muhitning ahamiyati, bolalarning ijtimoiylashuvi jarayonida neologizmlarning o'rni, ona tili fonologik tizimini o'zlashtirish, bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik xususiyatlari, bolalarning ona tilini o'zlashtirishda qo'shimchalar tartibini aniqlash masalalari o'rganilgan.

Bolalarning ikki tilliligi bo'yicha tadqiqotning yangi yo'nalishlari og'zaki bo'lmagan xatti-harakatlar va og'zaki bo'lmagan muloqot ikki tillilikni rivojlantirishda bolalarning individual

xususiyatlari va ular til qobiliyatlarining roli madaniyatlararo muloqotda ikki tili bolalarning xulq-atvori ikki tillilik va bikulturalizm o'rtasidagi munosabatlar bir vaqtning o'zida ikki tilda o'qishni o'rganish, ikki tilda yozma nutqni rivojlantirish spontan tarjima va tillararo ekvivalentlar, ikki tillilik tipologiyalarini ishlab chiqish va yangi turlarini aniqlash hamda ikki tillilikning jadal rivojlanishi masalalari yuqorida qayd etilgan uslubiy ishlarining paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bilingivizm jamiyat rivojlanishining muhim sotsiolingvistik omili sifatida hozirgi vaqtda nafaqat ta'lim jarayonini tashkil etishda, balki u jamiyat hayotining siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarida ham faol rol o'ynamoqda. Shu bois bugungi kunda xalqaro (ingliz) tilni bilish me'yoriga qo'yiladigan talablar ham biroq o'zgardi, amaliy islohatlar har qanday jamiyat shaxsining oldiga chet tillarini bilish va o'rganishdek muhim vazifalarni ham yuklamog'qa.

Oilaviy ikki tillilik asosan ikki etnik jamoa vakillari bir aholi bo'lib yashaydigan xududlarda (masalan, respublikamizning Buxoro, Samarqand, Toshkent viloyatining ba'zi tumanlarida), ayniqsa, er va xotin ikki millatga mansub oilalarda ko'p yuzaga keladi. Bunday oila farzandlari bolaligidan tabiiy vaziyatda ham ota, ham onaga mansub bo'lgan etnik jamoaning tilini o'zlashtirishga majburlidirlar. Oilaviy ikki tillilik dunyoning barcha mamlakatlarida, aniqrog'i, qaerda ikki millat vakili yashayotgan bo'lsa, o'sha yerda, albatta, keng tarqalgan bo'ladi. Oilaviy ikki tillilik sharoitida o'sgan farzandlar polilingv bo'lib yetishadilar. Poliglottlar ham ko'pincha ana shu oilalarda tarbiya topgan shaxslardan yetishib chiqadi.

Har xil til jamoasi vakillaridan tarkib topgan oilada shakllanuvchi tabiiy ikki tillilik bilan bir qatorda, situativ ikki tillilik deb nomlanuvchi shakli ham mavjud. Situativ ikki tillilik dunyoning ko'p millatli barcha mamlakatlarida uchraydi. Har bir mamlakatning asosiy aholisi tili davlat maqomi bilan imtiyozga ega bo'ladi. Masalan, O'zbekistonda mamlakatning asosiy aholisi o'zbeklardir. Bundan tashqari, tojik, qirg'iz, rus va boshqa millatlar ham bu mamlakatda yashaydi. O'zbek bo'lmagan aholining o'zbek tilini bilishi shu mamlakatda amal qiluvchi situativ ikki tillilikka kiradi.

Ma'lumki, sotsiolingvistikaning ayrim tushuncha va hodisalari psixologiya faniga daxldor bo'ladi va psixologlar tomonidan o'rganiladi. Xususan, ikki va ko'p tillilikning ko'p jihatlari psixologiyaga aloqador tushuncha. Ikki tillilik, psixologik jihatdan, koordinativ ikki tillilik va subordinativ ikki tillilik singari ikki guruhga ajraladi.

Koordinativ ikki tillilik deganda har ikki tilni, ya'ni bilingvning o'z ona tilini va unga ma'lum maqsadlarga ko'ra tenglashtirilayotgan o'zga tilni birday bilish darajasi anglashiladi. Muloqot o'z ona tilida boshlansa, o'zga tilga bevosita ulanib, davom etaveradi. Yoki, aksincha, o'zga tilda boshlangan muloqot o'z ona tiliga bevosita ulanib davom etishi mumkin. Demak, muayyan nutqiy jarayonda undagi vaziyatga qarab, kontaktdagi har ikki tildan bir xil me'yorda foydalanish koordinativ ikki tillilik deyiladi. Unda bilingv uchun o'zga sanalgan til ham unga ona tili darajasida o'zlashtirilgan bo'ladi. Koordinativ ikki tillilikni mamlakatimizda o'zbek-tojik, o'zbek-rus tillari misolida ko'plab uchratishimiz mumkin.

Subordinativ ikki tillilik koordinativ ikki tillilikning aksi bo'lib, bunda bilingv, ya'ni ikki tilda erkin muloqotga kirishuvchi shaxs kontaktdagi tillardan birini nazariy jihatdan ham me'yor darajasida o'zlashtirgan bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Demak, ikki tillilik haqida gap ketganda shaxsning ikki xil til qo'llaniladigan ijtimoiy guruh bilan bog'liqligini e'tiborga olish lozim.

Ikki tillilik tabiatida ikki tilda kompetensiya va muloqot hodisasi sifatida talqin etiladigan pozitsiyalar ham mavjud, bu so'zlovchining ikki tilni bir-birining o'rnida ishlatish qobiliyatidir.

Demak, ikki tili shaxs – o'zi o'zlashtirgan tillarni erkin kodlash va dekodlash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxsdir.

Ta'kidlash kerakki, keyingi yondashishlarda ikki tillilik ta'rifida asta-sekin rivojlanish kuzatiladi. Dastlabki tushunchalar va ta'riflar har ikkala tilni to'liq egallagan muvozanatli ikki tillilik g'oyasini ta'kidlaydigan radikal postulatlariga o'xshaydi. So'nggi ta'riflarda ikki tili shaxslarni tasniflash yoki yoriqlashdan biroq chekinadi va, aksincha, ularning psixologik rivojlanishini, kognitiv shaxs tasvirini yoki madaniy muhitining ta'sirini tavsiflash yoki aniqlashga e'tibor qaratiladi.

Hozirgi vaqtda ikki tillilikni o'rganishning bir qancha nazariy istiqbolari va yo'nalishlari mavjud bo'lib, masalan, G. Martinez ikki tillilikning uch xil yondashuvni ajratadi: psixolingvistik yondashuv, sotsiolingvistik yondashuv va tanqidiy lingvistik yondashuv. Ikki tillilikning psixolingvistik yondashuvda tilning tizimliliigi va bir tili yoki ikki tili rejimda tildan foydalanish jarayonlari o'rganiladi, biroq ikki tillilik bilan bog'liq muammolari bilan shug'ullanmaydi. Sotsiolingvistik yondashuvda kommunikativ vaziyatlar va maqsadlardan kelib chiqib, turli xil ijtimoiy vaziyatlarda til tizimidan qanday foydalanish masalalari o'rganiladi. Nihoyat, tanqidiy lingvistik yondashuvda ob'ekt sifatida ikki tillilik masalasi ko'rildi, biroq ikki tillilikni ikki tilda gaplashish qobiliyati deb emas, balki til va ma'ruzachilar joylashadigan ijtimoiy-madaniy, siyosiy va mafkuraviy kontekstlardan va bu kontekstlardan kelib chiqadigan ko'p ma'nolardan xabardor bo'lish deb tushuntiradi.

Demak, ikki tillilik psixolingvistikasi bir tillilik yoki ikki tillilik rejimda tillarni idrok etish, tushunish va yodlash jarayonlarini o'rganishga qaratilgan. Har doim ham ikki tillilikda tillarning mustaqilligi masalasi tilshunoslikning diqqat markazida bo'lib, bunda ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Ko'pgina psixolingvistik tadqiqotlar ikki tillilik bolalarning kognitiv va lingvistik rivojlanishiga katta afzallik berishini ko'rsatadi. B. Bain, J. Cumminsning ta'kidlashicha, ikki tillilik shaxsga kognitiv va lingvistik ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi va bu ko'p jihatdan bir tili so'zlashuvchilarnikidan ustundir.

Ikki tillilik va uning sotsiolingvistikasi bilan aloqasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda e'tirof etilgan yana bir jihat – bu diglossiya hodisasi bo'lib, nutq jamoasida bir tilning ikki xil ko'rinishida birga yashashidir. Birinchi shakl – yuqori darajada kodlangan bo'lib, odatda, adabiy yoki adabiylashishga yaqinlashgan dialekt, ikkinchisi – umumiy til xilma-xilligi esa aholining ko'pchiligi gapiradigan umumiy dialektidir. Diglossia ikki va ko'p tili jamiyatda qo'llaniladigan tillar yoki til variantlari o'rtasidagi funksiyani aniq farqlashi mavjud bo'lgan muayyan turdagi sotsiolingvistik vaziyatni tavsiflaydi.

Xulosa va takliflar. Xullas, ikki tillilik hodisasini sotsiolingvistika nuqtai nazaridan tahlil qilganda, ikkinchi tilni o'rganishga ta'sir qiluvchi omillarni, shu jumladan, odamni yangi tilni o'rganishga qiziqish uyg'otadigan sabablar yig'indisi sifatida qaraladigan motivatsiyani eslatib o'tish kerak bo'ladi. Shu munosabat bilan motivatsiyaning quyidagi ikki turi ham ajratiladi: instrumental motivatsiya va integrativ motivatsiya. "Instrumental motivatsiya" atamasi o'zlarining kasbiy maqomini oshirish, akademik takomillashtirish, ilmiy va texnologik ma'lumotlarga kirish va h.k. kabi maxsus imtiyozlarga ega bo'lish uchun ikkinchi tilni o'rganish qarorini anglatadi; tilni pragmatik maqsadlarga erishish vositasi sifatida ko'rish. "Integrativ motivatsiya" atamasi maqsadli til madaniyatiga yaqinlashish va hatto uni so'zlovchining o'z madaniyatiga qo'shishga bo'lgan qiziqish yoki istakni anglatadi.

Demak, ko'p tillilik muhitida psixologik va kognitiv faollik ahamiyatli hisoblanib, u ikki tili ta'lim muhitini yaratishga va o'quvchilarning tashqi va ichki motivatsiyasini rag'batlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

- Aleksandrova N. Sh. Erta bolalik davridagi ikki tillilik - bir tillilikka intilish // A. R. Luriya va XXI asr psixologiyasi. A. R. Luriya tavalludining 100 yilligiga bag'ishlangan ikkinchi xalqaro konferensiyaning ma'ruzalari. M., 2003.
- Berestnev 2000 - Berestnev G.I. Til oynasida shaxsiy o'zini o'zi anglash: mavhum. Dis. Doktor Filol. Sci. M., 2000.
- Chernysheva 2001 yil - Chernysheva E. B. Maktabgacha yoshdagi bolaning kommunikativ xatti-harakati: (Psixolingvistik tadqiqot): dis. kand. Filol. Sci. Voronej, 2001.
- Goroshko 2001 - Goroshko E.I. Erkin assotsiativ eksperimentning integral modeli. M.: nashriyot uyi. "RA-Karavella" guruhi, 2001.
- Leontiev, A. A. Tilni o'zlashtirish jarayonining boshlang'ich bosqichining ba'zi psixolingvistik jihatlari / A. A. Leontyev // Dastlabki bosqichda chet elliklarga rus tilini o'rgatish masalalari / Ed. A. A. Miroyubova va Z. Yu. Sosenko - M.: Moskva davlat universiteti, 1976.
- Lepkaya N.I. Bola tili (nutq muloqotining ontogenezi). M.: Moskva davlat universiteti nashriyoti, 1997 yil.
- Protasova 1988 - Protasova E. Yu. Bolalar va tillar. Ikki tili bolalar bog'chasida bolalarning hayotiy faoliyatini tashkil etish: usul, "Ikki tili" dasturi uchun qo'llanma. Bolalar bog'chasi". M.: Pedagogikada innovatsiyalar markazi, 1988.
- Samarin, D. V.A. Bogoroditski on the role of language borrowings // Philological Sciences Issues of Theory and Practice. 2011-6-2.

9. Shcherba JI. V. Ona va chet tillari o'rtasidagi munosabat to'g'risida // Til tizimi va nutq faoliyati. JL, 1974, 338-343-betlar. (Shuningdek qarang: // Maktabda chet tillari, 1934. № 1.
10. Weinreich, U. Languages in contact. Berlin: De Gruyter Mouton, 2010.
11. Xarchenko V.K. Bolalar nutqi lug'ati. Belgorod: Belgorod, shtat. ped. Institut, 1994.
12. Бодуэн де Куртене. Введение в языковедение. – М.: Ленанд, 2018.
13. Искандарова, Г. Болалар нуткига оид баъзи мулоҳазалар // Ўзбек филологиясига оид тадқиқотлар: Илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент: ЎзМУ, 2009.
14. Исмаилов, М.С. Грамматические способы выражения пространственных отношений при двуязычии (на материале узбекско-русского раннего двуязычия): автореф. дис...канд. фил. наук. – М., 1988.
15. Сайидирахимова, Н.С. Мактабгача ёшдаги ўзбек болалар нуткининг лингвистик хусусиятлари. Филол. фан. номз...дис. – Тошкент, 2004.